

MAKTABGACHA VA KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI BOLALAR DIQQATINI FAOLIYATDA JAMLASH VA TAQSIMLASH BO`YICHA TAVSIYALAR

R.I.Murodullayeva

Koson tuman 32- DMTT tarbiyachisi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada maktabgacha va kichik maktab yoshidagi bolalarning diqqati va uning xususiyatlari ,o`xshash va farqli tomonlari haqda fikrlar boradi.Faoliyatlarda va uyda maktabgacha va maktab yoshidagi bolalar diqqatini jamlashga yordam beruvchi tavsiyalar, texnikalar bayon etilgan.Daraslarda bolalar diqqatini bo`linishiga sabab bo`lishi mumkin bo`lgan holatlar keltirib o`tilgan.

Kalit so`zlar: Pedagogik mahorat,intonatsiya,ritm,iqqat, ixtiyoriy diqqat, ixtiyorsiz diqqat,meditatsiya,gipnoz qiluvchi grafiklar,yorug'lik chaqnashi.

Hozirgi paytda dunyo miqyosida raqobat qanday keskin tus olib borayotganini hammamiz ko`rib turibmiz. Bu shiddatli raqobatga faqat zamonaviy ilm-fan ,yuqori texnologiyalar va innovatsiya yutuqlarini keng joriy etish orqali munosib javob bera olamiz. Dunyodagi rivojlangan mamlakatlar oz oldiga nafaqat mahsulot ishlab chiqarishni kopaytirish va ularni bozorga olib chiqishni , balki chuqur bilim va ilmiy yutuqlarga asoslangan innavotsion iqtisodiyotga otish vazifasini qo`ymoqda.[1;224] Shu sababli ham bizning vatanimiz O`zbekistonda ham ta`lim,ilm fan sohalariga katta e`tibor qaratilmoqda.Ayniqsa maktabgacha tarbiya yoshdagi bolalar ularni davlat va nodavlat ta`lim tashkilotlariga qamrab olish ,kichik maktab yoshidagi bolalar ta`lim tarbiyasi va ularga ishlab chiqilayotgan davlat dasturlari doimiy e`tibor ostida turibdi.

Ilm fan sohasidagi maqsadlar,rejalar biz pedagoglarga juda katta va muhim talablarni qo'yimoqda.Shu talablarni bajarishda pedadog birinchi navbatda bolani sevishi va uning ruhiy olamini tushunib olishi lozim.Pedagogika fani psixologiya fani bilan uzviy bog`liq bo`lib bunda pedagog bolalarga xos bo`lgan umumiy psixologik xususiyatlarni ,ularning qonuniyatlarini bilmog`i lozim aks holda o'z faoliyatida qiyinchiliklar va muammolarga duch keladi.Pedagog yosh avlodni turli tuman bilimlar bilan qurollantirar ekan avvalo bolalarning diqqatini bir nuqtaga va o'tilayotgan mavzuga yoki ma`lum voqea hodisaga qarata olmog`i lozim.

Diqqat – psixik faoliyatning yo`naltirilishi va shaxs uchun ma`lum ahamiyatga ega bo`lgan ob`ekt ustida to`planishidan (beqaror yoki situatsiyali to`planishidan) iboratdir.

Yo‘naltirilishi deganda psixik faoliyatning tanlovchanlik harakateri, ob‘ektning ixtiyoriy yoki beixiyoriy tanlash tushuniladi. Masalan maktab o‘quvchisining biror boshqa narsaga chalg‘imasdan o‘quv materialining mazmuniga zehn quyib o‘tirishida uning psixik faoliyatining yo‘nalishi ifodalanadi.

O‘quvchilarni diqqatini jamlash o‘qituvchining mahoratiga va dars o‘tish yonalishiga bog‘liq. Agar u o‘quvchisini har tomonlama o‘ziga qarata olsa , ularni jamoa bolib ishlashga olib kela olsa uning barcha o‘quvchilari bilimga chanqoq bolib yuksalishadi. Buning uchun esa koproq izlanish va o‘z ustida ishlash talab etiladi.

Kichik maktab yoshidagi oquvchilarga diqqatni rivojlantirishning psixologik xususiyatlari bo‘yicha ta‘lim tizimida olib borilayotgan ishlarga yanada ehtiyoj kopligi aniqlandi. Kichik maktab yoshidagi oquvchilarga diqqatning taqsimlanish xususiyati qiz bolalarga kuchli rivojlanganligi ,diqqatning barqarorligi va kochuvchanligi ogil bolalarda qizlarga nisbatan kuchli darajada namayon bolishi empirik tadqiqotlar asosida aniqlangan ,oquvchilarga diqqatning shakllanishi oqituvchilarga oquvchiga munosabati kabi obyektiv omilga hamda shaxsning individual psixologik xususiyatlardan biri hisoblangan temperamentiga ,oquv motivatsiyasi kabi subyektiv omillarga bogliqligi korrelyatsion tahlillar asosida aniqlangan.[3.] Maktab ta‘limiga tayyorlanayotgan bolaga diqqat nisbatan uzoq muddati va shartli barqaror bo‘ladi. Bola diqqatining xususiyatlari rolli va syujetli o‘yinlarda, rasm chizish va qurish- yashash mashg‘ulotlarida, loy hamda plastilindan o‘yinchoqlar tayyorlashda, matematik amallarni yeshichda, hikoya tinglash va tuzishda ko‘rinadi. Bola o‘z diqqatini muayyan obektga yo‘naltirish, to‘plash taqsimlash bo‘yicha ma‘lum darajada ko‘nikmaga ega bo‘lib o‘z diqqatini boshqarish va kerakli paytda to‘plashga intiladi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari ishonuvchan tashqi taasurotlarga beriluvchan bo‘ladilar.Mazkur davrida o‘qituvchining har bir gapi, har bir hatti harakati yaxshi ta‘sir ko‘rsatishi uning uchun haqiqat me‘zoni vazifasini bajaradi. Chunki o‘quvchilar o‘qituvchilarga qattiq ishonadilar. Uning fikr mulohazalariga quloq soladilar. Pedagogik nazokatidan jiddiy tasirlanadilar[4]

Bir necha yillik ish faoliyatimda bolalar diqqatini jamlashga yordam beruvchi bir qancha foydali bilimlarga ega bo‘ldim va ulardan darslarni samarali tashkil etishda doimo foydalanib kelmoqdaman.

1.Faoliyatni boshlashdan oldin barchani tarqoq diqqatini bir joyga jamlash uchun sanash .Masalan birdan uchgacha yoki birdan beshgacha sanash.Kelgusi faoliyatda ham bu takrorlansa bu bolalarda shartli refleks bo‘lib qolib sanalganda diqqat jamlanadi.

2. Faoliyat davomida faqat o‘qituvchi yoki tarbiyachi gapirmasdan bolalarni ham faollikka undash.Ya‘ni yangi mavzuga oid bolalardagi bor bilimni so‘rash,bolalarga savollar bilan

murojaat qilish. Bu yo'l orqali bolalar mavzuni yanayam chuqurroq bilishga, diqqatliroq bo'lib turishga intiladilar. Ayniqsa ustozlarning hech birlariga befarq emasligi nazorat qilib turganligiga amin bo'ladilar. "Ustozim hozir menga ham qanaqadir savol berib qolishi mumkin" - degan fikr ostida sergak bo'ladilar.

3. Faoliyatni mavzuga oid ko'rgazmalar, ko'rgazmali qurollar, tarqatma materiallar, qo'l mehnat namunalari, slaydlar, AKT va hokazolar orqali yoritib berish.

4. O'quvchilarni diqqatini jamlash uchun eng kerakli metod bu -turli o'yinlardan foydalanishdir. Bu bilan barcha bolalar diqqatini o'zimizga jalb qilishimiz mumkin. Jumboqlar, stol o'yinlari va xotirani rivojlantirish uchun o'yinlar - bularning barchasi bolaga diqqatni jamlash qobiliyatini rivojlantirishga va uning oldidagi mashg'ulotning maqsadini ko'rishga yordam beradi. Bundan tashqari qo'g'irchoq teatri turlari ham ma'lum bir voqea hodisani, ibratli ertak hikoyalarni bolalar ongiga tez va samarali singdirishda muhim rol o'ynaydi.

1. Soyali qo'g'irchoq teatri (Oq va qora qo'g'irchoq teatri)

2. Qo'l qo'g'irchoq teatri.

3. Barmoq qo'g'irchoq teatri.

4. Stol qo'g'irchoq teatri.

5. Marionetka qo'g'irchoq teatri (Arqonli, temirli, cho'pli)

5. Aniq va ravon gapirish lekin juda sekin emas! Va o'z yoshi uchun o'ta qiyin bo'lgan xorijiy so'zlar yoki atamalarni ishlatishdan qochish, bolalar uchun diqqatni jamlash osonroq bo'ladi. Har qanday odamga diqqatini jamlash qiyin, agar u dastlab tushunarsiz narsaga duch kelsa va bolalar ham.

6. Ohangingiz ko'tarilishini boshqarish ritm, intonatsiya. Agar bolalar beparvo bo'lsalar yoki chalg'ib qolsalar, siz ularning e'tiborini orqaga tortish uchun ovozingizni balandlatishingiz mumkin. Biroq, siz bolalarga baqirmasligingiz kerak.

7. Qo'llaringizda qarsak chalish Yosh bolalar uchun og'zaki bo'lmagan e'tiborni tortish usullari ko'proq mos keladi. Qo'l chayqash, qo'ng'iroqdan foydalanish yaxshi samara beradi.

Jismoniy mashqlar bolalar uchun juda muhim. Sport va boshqa ochiq o'yinlarni yaxshi ko'radigan bolalar, uy vazifalarini bajarayotganda, diqqatini sinfda va uyda jamlaydilar.

8. Ba'zi tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, meditatsiya hatto yosh bolalarda ham diqqatni jamlash qobiliyatini yaxshilaydi. Nafas olish va meditatsiyaning asosiy usullari maktabda ham, uyda ham qo'llanilishi mumkin, ulardan ba'zilari hatto boshlang'ich maktab yoshidagi bolalarda ham qo'llanilishi mumkin bo'lishidan qat'i nazar, bolalarni tinch, osoyishta, chalg'itadigan narsalardan uzoqroq tutishga harakat qilish kerak.

9. Faoliyatda xonani bolalarga qulay, mavzuga, mavsumga mos bo'lishini taminlab bering.

10. Faoliyat uchun zarur bo'lgan barcha materiallar ish joyida saqlanishi kerak. Bolaga har xil rangdagi qalam, qo'shimcha qog'oz, qaychi yelim, ko'rgazmali qurollar va hokazo. Ulardan biri bo'lmaganda ham diqqat bo'linadi.

11. Tanaffus qilish bolalar ruhiy toliqib qolmasligiga, bilimlarni o'zlashtirishda yangi kuch topishda yordam beradi. Agar bola ma'lum bir topshiriq bo'yicha bir soat ishlasa (yoki bola yoshroq bo'lsa ham yigirma daqiqa), uni tanaffusga taklif qiling. Unga meva bering yoki bola ishga qaytguncha bir necha daqiqa suhbatlashing.

12. Bolalar yonida yoki qo'lidan har qanday chalg'itadigan narsalarni yo'q qiling. Vazifalarni bajarish paytida yonida hech qanday o'ynab o'tiradigan buyum va elektron narsa bo'lmasin (agar faoliyat kompyuterni talab qilmasa)

Faoliyatdan tashqari uyda ham bolalar diqqatini darsga yoki biron tayyorgarlik, bilim olishga qaratish uchun ham bir qancha qoidalar tavsiyalar mavjud albatta bunda har bir bolaning individual xususiyatlariga ham ahamiyat beriladi.

Bolalarning ekran vaqtini kamaytirish. Yosh bolalar televizor yoki kompyuter tomosha qilish yoki video o'yinlar o'ynashga ko'p vaqt sarflashsa, ular diqqatni jamlashga qiynaladilar. Buning sababi shundaki, ularning miyasi o'yin -kulguning o'ziga xos shakliga (bu passiv ko'ngilocharlik) o'rganib qolgan va keyinchalik gipnoz qiluvchi grafikalar va yorug'lik chaqnashi bo'lmaganida hech narsaga diqqatini jamlay olmaydi. Mutaxassislar ikki yoshgacha bo'lgan bolalar uchun ekran oldida vaqt o'tkazishdan butunlay voz kechishni, boshqa bolalar va o'smirlar uchun kuniga bir yoki ikki soat bilan cheklashni tavsiya etadilar.

Shunday ekan kelajagimiz poydevori bo'lgan yosh avlodni ilm fan, hayotimiz uchun zarur bilimlar bilan qurollantirish uchun bu kabi diqqatni tortuvchi passiv ko'ngilacharliklardan himoya qilishimiz lozim.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

- 1.. Yangi Ozbekiston taraqqiyot strategiyasi. Toldirilgan ikkinchi nashri .- Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2022.-416 bet. ISBN 978-9943-7951-7-4
2. Bolalar psixologiyasi va uni o'qitish metodikasi O'quv qo'llanma. T.: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2006 54b.
3. Xudaybergenova aygul Isakovna amaliyotchi psixolog
4. Odamova O'g'iljon Urganch Davlat universiteti Pedagogika va psixologiya kafedrasida katta o'qituvchisi Название публикации: «Boshlang'ich sinflarda diqqatni korreksiyalash va o'zlashtirmaslikning oldini olish»